

## Farg'ona vodiysi tarixidan hikoya qiluvchi ko'rgazma

Joriy yil 20 fevral kuni O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyida O'zR FA Milliy arxeologiya markazi hamda Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi hamkorligidagi dala tadqiqotlari natijalariga bag'ishlangan "Qo'shtepa-2 tadqiqotlari rakursida qadim Farg'ona madaniyatlari" nomli ko'chma ko'rgazmasi ochildi.



Ushbu ko'rgazmadan Farg'ona vodiysining bronza davridan o'rta asrlargacha bo'lgan tarixi haqida hikoya qiluvchi topilmalar joy olgan.



Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qo'shtepa yodgorligi o'z qarida 12 asrdan ko'proq uzluksiz hayot izlarini saqlab kelayotganligi aniqlandi, ya'ni, mil.av. IV-III asrdan VIII asrgacha va qisman X-XII asrlarda ajdodlarimizning tadrijiy tarixi aks etib, 6 dan ziyod qurilish davrlarini bosib o'tgan.

Yodgorlikning turli qatlamlarida qadimgi tosh va bronza davrlariga oid topilmalarning aniqlanishi, yaqin atrofda neolit va Chust madaniyatiga tegishli manzilgohlarning mavjudligi yoki Qo'shtepa tosh va bronza davrlariga oid manzilgohlarning ustida qad ko'tarilganligidan dalolat beradi.



